

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI

(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN

QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ

МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI

TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ

УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM

O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER

CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджибаева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

YURIDIK FANLARI

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI

Tog'onova Jemala Maksat qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Uruganch Davlat Univarsitet "Huquq" kafedrası
Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatning mediatatsiya jarayonidagi roli, ya'ni malakali yuridik yordam ko'rsatish huquqiga ega shaxs sifatida mediatsiya faoliyatini amalga oshirishi tahlil etiladi. Maqolada advokat-mediatorning vazifalari, ularning ishtirokining huquqiy asoslari va nizolarni hal etishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda mediatsiya jarayonida advokat ishtirokining dolzarbligi va istiqbollari alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: advokatlik faoliyati, mediator faoliyati, mediatsiya, qonun, mediator, advokat, nizo, advokat-mediator, taraflar, professional.

THE ROLE OF A LAWYER IN MEDIATION

Taganova Zhemala Maksat qizi

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni, Department of Law, Student of Jurisprudence

Annotation. This article analyzes the role of a lawyer in the mediation process, that is, the activity of acting as a mediator by a person officially authorized to provide qualified legal assistance on a professional basis. The article discusses the functions of a lawyer-mediator, the legal foundations of their involvement, and their effectiveness in resolving disputes between parties. The relevance and prospects of lawyer participation in mediation are particularly emphasized in today's legal practice.

Key words: legal profession, mediation activity, mediation, law, mediator, lawyer, dispute, lawyer-mediator, parties, professional.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-16>

Mediatsiya davlatlararo aloqalarda, oilalar, qo'shnilar, siyosiy partiyalar, professional, diniy va boshqa jamoatchilik guruhlarida o'rtasida va parlamentda yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishda ko'p asrlar davomida muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

O'zbekistonda hozirgi paytda yangi mediatsiya institutini rivojlantirish dolzarb va tobora muhokamaga sabab bo'layotgan huquqiy masalalardan biri — mediatsiyani keng aholiga yetkazish va undan foydalanishning maqsadga muvofiqligi hisoblanadi. Ushbu jarayon sud jarayoniga nisbatan muqobil deb tan olinadi va taraflarning o'zaro kelishuvga erishish va o'zaro manfaatli yoki o'zaro maqbul kelishuvga erishish uchun mustaqil va xolis mediator — vositachi ishtirokida ular o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish bo'yicha nizo taraflarining o'zaro muzokaralar o'tkazishlarida yotadi. Hozirgi davrda sudlarga kelib tushayotgan ishlar soni ortib borayotganligi sababli jamiyat nizolarni hal etishning muqobil usullarini qidirmoqda. Odatda davlat sudlari nizolarni hal etishning muqobil usullarini rivojlantirishga har tomonlama ko'mak beradi, sababi ular davlat sudlaridagi ishlar sonini normallashtirishga shuningdek, odil sudlovni samarali amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratishga imkon tug'diradi. Bahsli munosabatlar subyektlarining dispozitivligi chegaralarini kengaytirish va ziddiyatlarning umumiy darajasini pasaytirishga bo'lgan aniq ehtiyojni

hisobga olgan holda, mediatsiyaning O'zbekiston huquqiy tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining muhim vazifasidir.

Shu munosabat bilan, 2019 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan 2018 yil 3 iyul kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-sonli qonuniga (keyinchalik "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun) e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Ushbu qonunning 12-moddasiga ko'ra, mediatorning faoliyati professional yoki noprofessional asosda amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni, Qonunda nizolashuvchi taraflar tomonidan yuzaga kelgan kelishmovchiliklarini hal qilishda yordam berish uchun professional mediatorni taklif qilishlari mumkinligi nazarda tutilgan. Professional mediatorlarning faoliyati "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunni ishlab chiquvchilar tomonidan mediatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqiladi va O'zbekistonda mediatsiya taqdiri ko'p jihatdan professional mediatorlarga, ularning mavjudligi va ularning ish sifatiga bog'liq bo'ladi deb taxmin qilish o'rinli bo'ladi.

Mediatsiyaning maqsadi – nizo ishtirokchilarining o'z kelishmovchiliklarini mustaqil hal qilish layoqatiga, o'zaro talablarini qondirishga va har ikki taraf uchun baravar foydali bo'lgan kelishuvga erishishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Jamiyatning mediatsiyaga bo'lgan talabi shunga olib keldiki, natijada dunyoda sekin-asta yangi kasb – mediator kasbi shakllana boshladi. Shu bilan birga, mutlaqo tabiiy savol tug'iladi, qaysi mutaxassisliklar va faoliyat sohalari vakillari professional mediatorlar toifasiga kiradi. "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunda mazkur yo'nalishda hech qanday cheklovlar mavjud emas. Qonunning 12-moddasi ikkinchi qismiga asosan professional asosdagi mediator faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek Professional mediatorlar reestriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunning amal qilish sohasi 3-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, huquqiy nizolar bo'yicha vositachilik qilishga qaratilgan, bu esa, o'z navbatida, nizolashuvchi taraflarning erishgan kelishuvi mediativ kelishuvni ishlab chiqish, shuningdek, erishilgan kelishuvlarni to'g'ri shakllantirish va to'g'ri mustahkamlash uchun taraflarga malakali yuridik yordam olish zarurligini taqozo etadi.

Aynan shu sharoitdan kelib chiqib, ya'ni malakali yuridik yordam ko'rsatishning rasmiy e'tirof etilgan subyekti advokatning mediator faoliyatini professional asosda amalga oshirishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan manfaatdorlik hisoblanadi. "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunning 12-moddasi oltinchi qismiga ko'ra, mediatorning faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi. Mediator bir vaqtning o'zida nizoning barcha taraflarining manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi va taraflarning manfaatlariga zarar yetkazmaganligi sababli, advokat-mediator faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydi. Biroq, buning uchun advokat-mediator mutlaqo betaraf bo'lishi kerak, ya'ni taraflardan biriga yoki ularning har biriga alohida yuridik yoki boshqa yordam ko'rsatmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida advokatlarning mediator faoliyati bilan shug'ullanishlariga cheklovlar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi 1996 yil 27 dekabr kuni qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 3-moddasi uchinchi qismi uchinchi bandiga asosan advokatga patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat bilan shug'ullanishga

haqli ekanligi belgilangan. Binobarin, advokatning mediator faoliyatini amalga oshirishiga faqat advokatlik faoliyati doirasida yo'l qo'yiladi.

Ushbu g'oyaga tayanib, shuni ta'kidlash kerakki, advokatlik faoliyati advokatning kasbiy faoliyati bo'lganligi sababli, advokatning mediator sifatidagi faoliyati faqat professional asosda amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi zamon sharoitida professional mediatorlar qatoriga yuridik hamjamiyat vakillari – korporativ odob-axloq me'yorlari yuqori bo'lgan malakali advokatlarning kirib kelishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda mediatsiyadan foydalanish amaliyotini shakllantirish bosqichida mediatorlar orasida advokatlarning bo'lishi, nizolarni hal qilishning ushbu usuli zarur ijtimoiy e'tirofga ega bo'lishini va noprofessional mediatorlarning faoliyati natijasida obro'sizlantirilmasligini kafolatlaydi.

Advokatning mediator vazifasini bajarishi an'anaviy advokatlik faoliyatidan vakil yoki maslahatchi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- Advokat faoliyatining alohida sohasi turli mavzulardagi nizolarning ziddiyatlari va munosabatlarini chuqur tahlil qilish bilan bog'liq;

- Tomonlarning nizoni hal qilish uchun o'zaro manfaatli yoki o'zaro maqbul shart-sharoitlarni izlashda ko'maklashadigan mustaqil va xolis vositachi sifatida advokatning alohida o'rni;

- Advokatlik faoliyati amalga oshiriladigan maxsus jarayon va ushbu jarayonda advokat-mediatorning o'rni.

Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda, advokatning mediator vazifasini bajarishi advokatning mutlaqo yangi mustaqil turi sifatida tavsiflanishi mumkin.

Mediatsiya advokatlar uchun odatiy sud jarayonidan tubdan farq qiladi. Sudda nizolar sudyalardan tomonidan taraflar uchun majburiy bo'lgan va majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar chiqarish yo'li bilan tugatiladi. Mediator faoliyatini amalga oshirayotganda, advokat nafaqat tomonlarning munosabatlarini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini va nizoda ularning huquqiy holatini ko'rib chiqmasligi kerak, balki tomonlar o'z manfaatlarini muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan kelishmovchiliklarni tugatish uchun tegishli qonuniy yechimlarini topishda yordam berishi kerak.

Mediatsiyaning mohiyati muzokarlarda o'z aksini topadi. Ularning muvaffaqiyat bilan tugashi uchun nafaqat taraflarning kelishmovchilikni yengishga intilishi va irodasi, balki advokat-mediatorning qobiliyati va tajribasi ham muhimdir. Mediatorlar faoliyati vujudga kelgan muammolar, kelishmovchilik va nizolarni hal qilishga yordam berishga qaratilgan. Advokat-mediator dalillarni o'rganmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, uning asosiy vazifasi – taraflar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlash, hamma ishtirokchilar uchun maqbul bo'lgan sharoitlarda muammoni hal qilish imkoniyatini amalga oshirishni aniqlash va yordam berish hisoblanadi.

Advokat-mediator vaziyat va uning orqasida turgan taraflarning manfaat, xohish, hissiyot va talablarini oldin aytilishi, keyin eshutilishi va nihoyat hamma ishtirokchilarga tushunarli bo'lishi uchun mumkin bo'lgan hamma narsani qiladi. Faqat shundan keyingina advokat-mediatorning tashabbusi bilan dalillar qayta ko'rib chiqiladi va birgalikdagi qaror – ya'ni, barcha taraflar uchun maqbul bo'lgan nizoning yechimi ishlab chiqiladi. Bu jarayon nafaqat nizo va uning natijasida kelib chiqadigan salbiy hissiyotlarni yengishga imkon beradi, balki kelajakda ishonch asosida yangi kelishuvlarga erishishga ham yordam beradi.

Taraflar huquqlarini davlat sudlarida himoya qilishning sud shaklidan mediatsiya jarayonining asosiy farqi – bu mediatori nizoning mohiyatiga nisbatan o'z-o'zidan hech qanday qaror qabul qilmasligidir. Mediatsiya davomida barcha qarorlar taraflarning ikki tomonlama kelishuviga ko'ra qabul qilinadi va ikkala taraf o'zlari tomonidan birgalikda qabul qilingan qarorlarini ixtiyoriy ravishda bajarish majburiyatini oladilar, ya'ni taraflarning o'zlari yakuniy kelishuv uchun javobgardir. Mediator sifatida advokat mediatsiyani o'tkazish bo'yicha umumiy rahbarlikni ta'minlaydi, taraflarning yarashuviga yordam beradi, lekin ko'rib chiqilayotgan masalalarni belgilamaydi, muhokama yo'nalishini ko'rsatmaydi va nizoni hal qilish shartlarini belgilamaydi. Bugungi kunda advokatlarning muqobil tartib-taomillarda, shu jumladan mediatorlik faoliyatini amalga oshirish xorijiy tajribada mavjud. Yarashitirish yo'nalishi sezilarli darajada rivojlangan mamlakatlarda huquqiy nizolarni hal qilishda yordam berish advokatlar va huquqshunoslar tomonidan odatda o'z huquqi sifatida ko'rib chiqiladi va ular ushbu yangi huquqiy amaliyotni faol ravishda rivojlantiradilar. Natijada ularning ba'zilari sud ishlarini yuritish o'rniga muzokaralar, mediatsiya va boshqa muqobil tartib-taomillarga ixtisoslashgan. Huquqiy nizolarni hal qilishda advokatlarning ishtiroki ularning professional faoliyatining tabiiy elementi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida mediatsiyaning keng tarqalishi, advokatlarning mediatorlik ko'nikmalarini egallashi va mediator faoliyatini professional asosda amalga oshirishi muqarrar hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisalar qanchalik tez sodir bo'lishi juda muhimdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, advokatning mediator vazifasini bajarishi advokatlik faoliyatining juda istiqbolli turi sifatida baholanishi kerak.

Advokatning nizoni hal etishda mediator sifatida ishtirok etishi mediatorning umumiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda ularga malakali yuridik yordam ko'rsatishni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, bu holatda o'ziga xoslik shundan iboratki, yuridik yordam advokat-mediator tomonidan mustaqil va xolis malakali advokat sifatida nizoning barcha tomonlariga birgalikda ko'rsatiladi.

Mediator faoliyatini amalga oshirishda advokatning kasbiy bilim va ko'nikmalari taraflardan birining foydasiga advokatlik faoliyatini amalga oshirishdan tubdan boshqacha tarzda amalga oshiriladi.

Advokat-mediator malakali yuridik yordam ko'rsatish subyekti sifatida – taraflarga mediatsiya tartib-taomilining huquqiy xususiyatini, uning boshqa muqobil tartib-taomillardan va sud jarayonidan farqlanishini Mediatsiya jarayonini o'tkazish, mediatsiyaning natijalari bo'yicha xulosa chiqarishning huquqiy oqibatlari, uning natijalari bo'yicha mediativ kelishuvni tuzish yoki tuzmaslik, mediativ kelishuvni bajarish tartibi, shu jumladan majburiy ijro etish tartibini tushuntiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, advokatning mediator vazifasini bajarishi advokatlik faoliyatining yangi va juda istiqbolli mustaqil turi hisoblanadi. Mediatsiya – advokatning bajarishi mumkin bo'lgan yangi vazifani va advokat-mediatorning ishtirok etish tartibi va qoidalarini hisobga olgan holda, ushbu vazifa tufayli advokat tomonidan ko'rsatiladigan yordamning tubdan boshqacha shaklini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, advokat-mediator tomonidan ko'rsatiladigan yordam odatda qonuniy bo'lib, advokat tomonidan kelishmovchiliklarni mediator sifatida hal qilishda yordam berish bo'yicha topshiriqni qabul qilish faqat huquqiy nizolar bo'yicha tavsiya etiladi. Mediatorlik faoliyatini "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan kasbiy asosda mediatorlik vazifasini

bajarish uchun professional vakolatga ega advokat tomonidan amalga oshirilishi bugungi kunda samarali va istiqbolli bo'lib ko'rinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. 2018 yil 3 iyuldagi O'RQ-482-sonli O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/3805227>
2. 1996 yil 27 dekabrda 349-I-sonli O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/29626>
3. O vozmozhnosti advokata uchastvovat' v kachestve mediator v uregulirovanii sporov. Advokatura v Rossii: Uchebnik. / Pod red. L.A. Demidovoy, V.I. Sergeeva. M., 2005.; Mel'nichenko R.G. Advokatura: Uchebnoe posobie. M., 2009.
4. Kasatel'no vydeleniya vidov advokatskoy deyatel'nosti: Voskobitova M.R. Uchastie advokata v realizatsii prava grazhdan na obrashchenie v mejgosudarstvennyye organy po zashchite prav cheloveka i osnovnykh svobod M., 2009.
5. Entringer F. Razvitie so strakhovkoy // Mediatsiya i pravo. Posrednichestvo i primirnie. 2010. N 1; Richbell D. V Rossii u mediatsii est' ogromnye vozmozhnosti // Mediatsiya i pravo. Posrednichestvo i primirenie. 2010. N1

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.